

BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARI INTEGIRATSIYASI

Umarova Dilafruz Anvarovna

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti "Boshlang'ich ta'lism metodikasi" kafedra
o'qituvchisi*

Chaqqonova Anora Toxir qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti "Boshlang'ich ta'lism" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya va ta'lism jarayonidagi o'rni yoritilgan bo'lib, boshlang'ich sinflarda integratsion darslarda qanday zamonaviy usullar qo'llanilishi haqida va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsiyalashgan ta'lism berish ko'nikmalarini yanada mahorat bilan o'tishi uchun ommalashgan hamda zamonaviy metodlar, texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan, integratsiya — o'quv fanlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlab, o'quvchilarda kompleks fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, hamda bilimlarni amaliyatga qo'llash, integratsiyaning asosiy turlari, ta'limda fanlarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilim sifati va ta'lism samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Integratsiya, zamonaviy metodlar, didaktik, verbal, metodika, fanlararo aloqadorlik, muammo.

Hozirgi o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik tushunchasi o'quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtiroykning yuzaga kelishi orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallay olishda asosiy vosita bo'ladi. Hozirgi vaqtida ta'lism jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'limda fanlararo aloqadorlikning asosiy maqsadi boshlang'ich mакtabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Dars jarayonida o'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'lli bilan turli o'quv fanlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlar, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi. Fanlararo aloqadorlik o'rnatish uchun o'quv materiali mazmuni mantiqan,

psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etadi. Pedagogik amaliyotda o'quv materialini mavzular bo'yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi. Aniqlangan fanlararo aloqadorliklar sxematik, jadval, verbal shakllarda qayd etiladi. Verbal so'zi inglez tilida ishlataladigan atama bo'lib, "og'zaki", "so'z bilan ifodalangan" degan ma'nolarni anglatadi. Verbal ikki guruhga bo'lib, og'zaki va yozma.

Biroq, fanlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog'liq holda shakllantirish lozim. Integratsiyaning turlari:

1. Mazmuniy integratsiya – turli fanlar mazmunini yagona mavzu asosida bog'lash. Masalan, "Bahor fasli" mavzusi ona tili, tabiatshunoslik va tasviriy san'at fanlari doirasida o'r ganiladi.
2. Metodik integratsiya – o'qitish metodlarini uyg'unlashtirish orqali fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish. Masalan, ijodiy topshiriqlar, loyi haviy ishlar.
3. Tematik integratsiya – biror mavzu atrofida barcha fanlarda umumiy faoliyat yuritish.
4. Texnologik integratsiya – AKT vositalaridan bir nechta fanlarda foydalanish orqali integratsiyani amalgalashuviga oshirish.

Hozirda maktab ta'lmini integratsiyalash, o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dastur tuzish ahamiyati har doimgidanda ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalada bizga fanlararo aloqadorlik muhim asos bo'lib xizmatqiladi. Integratsiyalashgan asosda har bir o'quv fanni o'rganish bolalar uchun kuchliroq bo'lgan psixologik jarayonni faollashuviga, uning mahkamlanishi, hissiy qabul qilinishi, xotirani mukammallashiga, fikrlash, nutq va tasavvur qilishni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Integrativ o'qitishning maqsadi boshlang'ich ta'linda tarbiyalashning rivojlantirish asosi bo'lgan tabiat va jamiyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, ularni rivojlanish qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdan iborat. Dastlabki boshlang'ich integratsiyalashgan darslar bu ona tili-o'qish, tabiatshunoslik-o'qish, o'qish-musiqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik-texnologiya, matematika-texnologiya, matematika-jismoniy tarbiya va hakozo kabi fanlarni qo'shib olib o'tkazishdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integratsiyalangan darslar o'tish mumkin, chunki bir o'zi hamma fanlarni o'qitadi. O'quvchi qanchalar yosh bo'lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'linda integratsiya imkonlari chegaralangan. Bolalar boshlang'ich ta'linda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mayjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang - barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi. Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o'quvchilardan oladi faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Integratsiyalashgan dars

o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi. O'qituvchi integratsiyalashgan darsda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak:darsning maqsadini, yangi ma'lumot manbalarini, har xil fanlarning ma'lumotlarini birlashtirish, bilimlarning funksional yo'nalishini, fan mazmunini qayta ishlash, eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo'lgan elementlar orasida aloqalar yaratish. Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim maqsadidan biri, o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik ta'minlashdan iborat. Integratsiyaning afzalliklari

1. Mavzularni chuqur tushunishga yordam beradi.
2. Fanlararo bog'liqlik orqali o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi.
3. Ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.
4. Ta'lim jarayonini jonli va qiziqarli qiladi.

Misol sifatida matematika fanining boshqa fanlar bilan yani ona tili, tasviriy san'at, tabiiy fan, o'qish savodxonligi bilan bog'liqligini ko'rib o'tamiz. Bu jarayonda bolalar misollarni ishlab chiqishadi, ishlab bo'lgandan so'ng ular javoblariga qarab, rasm tagidagi ko'rsatmaga binoan bo'yashadi bo'yalgan rasmida tabiat manzarasi hosil bo'ladi. Keyin rasmga qarab matematik masala tuzib uni o'qish ko'nikmalari shakillanadi. Masala yechish bilan bir qatorda tabiatni asrab-avaylash, uning g'aroyibotlaridan boxabar bo'lish imkonи tug'iladi, ona tabiat go'zalligiga muhabbat uyg'onadi. Boshlang'ich maktabda fanlararo aloqadorlikni amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi bajaradi. U bolalarni arifmetikaga, o'qishga, yozishga, tabiatga, mehnat qilishga va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi, o'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi.

Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib , ikkinchisida o'qituvchilar pedagogik mahoratini qo'llay olishi natijasida oladigan integratsion usullar kiritishdir. Masalaning bunday qo'yilishi fanlararo aloqadorlikning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga egaligidir. Boshlang'ich ta'limda integratsiya bir-biriga nisbatan yaqin fanlarning birlashtirilishini ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi
2. Abduqodirov R, Tolipov R, Xudoyberganov N, Tolipov M.Samarali dars. Ko'p yillik mehnat faoliyatim natijasidan
3. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'lifning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
5. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. 1-sinf "O'qish kitobi", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.
6. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G'ulomova. 1-sinf "Ona tili", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.
7. Internet saytlari.

